

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|----|
| B.Sh.Shermuhhammadov, B.S.Sharipova | |
| Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati..... | 6 |
| Sh.K.Xujamberdiyeva | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'ri..... | 11 |
| M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov | |
| Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi | 16 |
| M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova | |
| Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ... | 23 |
| M.M.Yakubbayev | |
| Development of lingvocultural competence of students in the process of teaching german language..... | 29 |
| J.A.Yuldashev | |
| Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning metodik xususiyatlari..... | 34 |
| X.T.Nishonova | |
| Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in elementary grades | 38 |
| Sh.M.Robilova | |
| O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli..... | 43 |
| U.S.Do'sanov | |
| Oliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini qo'llash metodikasi..... | 47 |
| X.X.Umarov | |
| Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов | 51 |
| Д.К.Каримов | |
| Мониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от типов телосложения у юных акробатов | 55 |
| З.Г.Гаппаров | |
| Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании | 61 |
| M.N.Nasritdinova | |
| Artpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish..... | 67 |
| M.G'Zaylobidinova | |
| Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik omillari, Xitoy tajribasi | 72 |
| D.K.Baydjanova | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni | 78 |
| I.A.Raxmonov | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni pedagogik muammosi..... | 82 |

IQTISODIYOT

| | |
|--|----|
| M.K.Abadov | |
| Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan | 85 |

FALSAFA

| | |
|---|-----|
| M.A.Mamatov | |
| So'fiylik – gumanistik ta'limot | 90 |
| Sh.O'.Ahrorova | |
| Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'ri | 98 |
| D.Y.Qambarova | |
| O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy munosabat mezonlari..... | 102 |



UO'K: 37.013:7.01

ARTPEDAGOGIKA FANINI O'QITISH JARAYONIDA BO'LAJAK PEDAGOGLAR BADIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТУ АРТПЕДАГОГИКА****DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN THE PROCESS OF TEACHING THE SUBJECT OF ART PEDAGOGY****Nasritdinova Madina Nurullayevna** 

Farg'ona davlat universiteti Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada artpedagogika fanining maqsad va vazifalari, bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda mazkur kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda fanning imkoniyatlari borasida so'z boradi. Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi sifatida bo'lajak pedagoglarning ijodiy kompetentligini rivojlantirish masalasiga bag'ishlagan O'zbekiston, MDH hamda G'arb olimlari izlanishlariga to'xtalib o'tilgan. Tadqiqot natijalari bo'limida artpedagogik usullarning amaliyotdagi samarasi keltiriladi.

Аннотация

В статье речь идет о целях и задачах арт-педагогике в развитии художественно-творческой компетентности будущих педагогов, возможностях арт-педагогике в развитии этой профессиональной компетентности. В качестве литературно-методического анализа были затронуты работы ученых Узбекистана, стран СНГ и Запада, посвятивших свои научные исследования вопросу развития творческой компетентности будущих педагогов. В разделе результатов исследования представлен эффект артпедагогических методов на практике.

Abstract

The article discusses the goals and objectives of art pedagogy in the development of artistic and creative competence of future teachers, the possibilities of art pedagogy in the development of this professional competence. As a literary and methodological analysis, the works of scientists from Uzbekistan, the CIS countries and the West were touched upon, who devoted their scientific research to the issue of developing the creative competence of future teachers. The section on the results of the study presents the effect of art pedagogical methods in practice.

Kalit so'zlar: artpedagogika, art usullar, artmetodlar, badiiy-ijodiy kompetentlik, bo'lajak pedagoglar, kasbiy faoliyat samaradorligi

Ключевые слова: артпедагогика, артметоды, художественные методы, художественно-творческая компетентность, будущие педагоги, эффективность профессиональной деятельности.

Key words: art pedagogy, art methods, art ways, artistic and creative competence, future pedagogues, efficiency of professional activity

KIRISH

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Kelajak pedagoglarini o'z kasbiga layoqatli, bilim doirasi keng, mustaqil fikrlaydigan, ta'lim jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan muammolarga optimal yechim topa oladigan har tomonlama yetuk kadrlarni yetishtirishga ehtiyoj sezilmoqda[3]. Mazkur muammoning yechimi sifatida professional mahorat darslari, ijodiy loyihalar va hamkorliklar, mulohaza va tahlil, teatr va badiiy terapevtik usullar hamda san'atning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi kabi tadqiqot usullaridan foydalanish ta'lim jarayoni sifatli tashkil etish orqali bo'lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yuksak ijobiy natijalarga yetaklaydi. Mazkur usullarni o'zida mujassam etgan yondashuvlardan artpedagogika sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbekistonda bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish mavzusida o'z ilmiy izlanishlarini himoya qilingan olimlardan bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish va badiiy ta'lim metodlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu jahhada izlanishlar olib borgan O'zbekiston olimlaridan Sh.A.Mirzayeva "Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish" - Mazkur tadqiqotda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari va mexanizmlari o'rganilgan.

N.M.Yo'ldoshev "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish"- Dissertatsiyada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish usullari tahlil qilingan. D.K.Siddiqova "Bo'lajak pedagoglarning estetik tarbiyasini takomillashtirish" — Mazkur ishda bo'lajak pedagoglarning estetik tarbiyasini rivojlantirish usullari va vositalari ko'rib chiqilgan[4].

R.X.Tursunov "Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish" — Bu dissertatsiyada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning ijodiy salohiyatini oshirish va badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar berilgan.

Ushbu dissertatsiyalar O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim berish jarayonida badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlardan namuna bo'lib, ularni pedagogika sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llab kelmoqda[5].

MDH davlatlari olimlaridan: Natalya Sergeyevna Gorelova - "Pedagogika kollejlida bo'lajak o'qituvchining ijodiy kompetensiyasini shakllantirish". Anna Vladimirovna Mayboroda - "Pedagogika universitetida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirish". Nadejda Valerievna Muravyova - "Pedagogika universitetida o'qish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetensiyasini shakllantirish".

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetentligini rivojlantirish mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan mashhur olimlardan Britaniyalik pedagog, yozuvchi va jamoat arbobi ser Ken Robinson o'z dissertatsiyasida ijodiy rivojlanish va ta'lim masalalarini ko'rib chiqqan. Izlanishlarida bo'lajak pedagoglarning ijodiy kompetentligini rivojlantirish mavzusida Robert Jey Sternberg, Linda Darling-Hammond, Howard Gardner, Teresa M.Amabile, Keith Sawyerlar kabi g'arb olimlarini e'tirof etishimiz mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, ta'limda ijodiy kompetensiya mavzusi turli mamlakatlarda faol o'rganilayotganini guvohi bo'lamiz. O'zbekistonda ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, uni yangi bosqichga olib chiqish, ta'lim samaradorligini yuksaltirishda horijiy ilg'or tajribalarni milliy o'qitish uslubimizga integratsiya qilishni taqazo etadi. Pedagogika sohasiga XX asr boshlarida kirib kelgan artpedagogik yondashuv uslubi o'zining progressivligi, sodda va samaradorligi bilan O'zbekiston ta'lim jarayoni uchun innovatsion xisoblanadi.

Musiqa, tasviriy san'at, teatr va raqs kabi turli xil san'at turlaridan shaxsni rivojlantirish yo'lida foydalanishga asoslangan o'qitish va ta'lim metodologiyasi artpedagogika bo'lib, uning asosiy maqsadi - san'at bilan faol munosabatda bo'lish orqali shaxsning intellektual, hissiy va ijodiy sohalarini uyg'un rivojlantirishdir[7].

Shu bilan birga, ta'lim sharoitida san'at va badiiy faoliyatning inson taraqqiyotiga ta'sirining qonuniyatlari, tamoyillari, tabiati, mexanizmlarini o'rganadigan ilmiy yo'nalish shakllanmoqda. Borgan sari "artpedagogika" yo'nalishi, amaliyotga asoslangan fanlararo harakterga ega bo'lib, zamonaviy gumanitar bilimlarga xos bo'lgan malakalarni integratsiyalashuv tendentsiyasini to'liq aks ettiradi[8].

Artpedagogika pedagogikaning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning birinchi yarmida shakllangan. Uni asoslashning asosiy sanalari va bosqichlarini quyidagi nazariyotchilar va pedagoglarning ishlari bilan bog'lash mumkin:

1. XX asr boshlari: Jon Dyui asarlari va uning "San'at tajriba sifatida" (1934) asarida ta'lim jarayonida san'atning shaxs rivojidadagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

2. 1920-1930-yillar: Lev Vygotskiyning tadqiqotlarida[9] san'atga bolalarning madaniy va kognitiv rivojlanishining muhim omili sifatida qaragan. Uning artpsixologiyaga oid "San'at psixologiyasi" (1925) asari ta'lim nazariyasi va amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

3. Rudolf Arngeymning 1930-1940 yillar dagi izlanishlari natijasida yaratilgan asarlarida san'at bilan bog'liq idrok va kognitiv rivojlanish nazariyalarining rivojlanishi ilgari surilgan. Uning

PEDAGOGIKA

“San’at va vizual idrok” (1954) nomli kitobi san’atning ta’lim jarayonlaridagi rolini tushunishga qo’shgan muhim hissi xisoblanadi.

4. 1980-yillar: Govard Gardnerning “Aqllar nazariyasi”, o’zining “Aql ramkalari: Aqllar nazariyasi” (1983) kitobida bayon etilgan. Gardner san’at turli xil aql-idrokning rivojlanishiga yordam beradi va ta’lim dasturlariga kiritilishi kerak deyilgan.

Shunday ekan, XX asr boshlarida paydo bo’lgan artpedagogikaga bog’liq g’oyalar mavjud bo’lgan bo’lsa-da, uning nazariy asoslanishi, muhim pedagogik yo’nalish sifatida e’tirof etilishi 1920-yillardan boshlab hozirgi kungacha qadar rivojlanib kelmoqda.

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son Farmoni[1], 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida[2]”gi qarorlarini amaliyotga tadbiq etish maqsadida ta’lim sohasida ko’plab zamon bilan hamnafas loyihalar amalga oshirilmoqda. Shuga qaramay, yangi davr ta’lim jarayoni yangicha yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Bu kabi ehtiyojlarni to’ldirishda artpedagogika inkoniyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yangi davr bo’lajak pedagoglari kasbiy kompetentsion imkoniyatlar bilan qurollanishida artpedagogika fanining o’rni katta. Artpedagogika fani san’at vositasida ta’lim berish uslubi sifatida nafaqat ta’lim olayotgan o’quvchi, balki kasbiy jarayonga kirishgan bo’lajak pedagog uchun ham qiziqarli jarayon bo’lib, ta’lim sifatini oshirish, yangi axborot materialini o’zlashtirishdagi muhim vositadir.

Artpedagogika fani asosida bo’lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish qiyudagi art-usullar orqali amalga oshiriladi:

| № | Bosqichlar | Maqsad |
|----|--|--|
| 1. | Professional mahorat darslarini tashkil etish | Bo’lajak pedagoglar mutaxassislar rahbarligida o’z ijodini rivojlantirishlari mumkin bo’lgan o’quv mashg’ulotlari. |
| 2. | Ijodiy loyihalarni tashkil etish | Talabalar bilan birgalikda innovatsion g’oyalar va usullar amalga oshiriladigan qo’shma loyihalarda ishtirok etish; |
| 3. | Mulohaza va tahlil | Kasbiy amaliyotini muntazam ravishda o’z-o’zini tahlil qilish, hamkasblar bilan muhokama qilish va tajriba almashish; |
| 4. | Teatr va badiiy-ijodiy terapevtik usullar | hissiy va ijodiy komponentni rivojlantirishda bo’lajak pedagoglarni tayyorlash dasturiga drama, teatr va artterapiya elementlarini qo’shish |
| 5 | Tadqiqot faoliyati | Bo’lajak pedagoglarni yangi usul va yondashuvlarni o’rganishga, artpedagogika sohasida mustaqil izlanishlar olib borishga qiziqtirish |
| 6. | San’atning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi | o’quv fanlarini o’qitishda san’at turlaridan (musiqa, teatr, tasviriy san’at, adabiyot) foydalanish ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi |

Artpedagogika fani imkoniyatlaridan foydalanib kelajak pedagoglarimizning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida yuqori mahoratga erishishlarini ta’minlaydi. Mazkur fan predmeti talabalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o’quv jarayonini yanada qiziqarli, mazmunli hamda samarali tashkil etishga yordam beradi, talabalarning kasbiy potensialini ochishga asosiy vosita xisoblanadi.

Artpedagogik yondashuvga asoslangan metodni tashkil etish va amalda qo’llash jarayoni o’rganishning aniq maqsadi va mazmuniga hamda foydalanilgan badiiy texnik, materiallarga bog’liq.

Artpedagogik usul quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

| № | Artpedagogik metodning bosqichlari | Artmetodni tashkil etish usullari | Jarayon ta’rifi |
|---|--------------------------------------|---|--|
| 1 | Maqsad va vazifalarni belgilash | Badiiy-ijodiy faoliyat orqali erishiladigan o’quv maqsad va vazifalarini aniq belgilash; | hissiy ekspressivlik, ijodiy fikrlashni, muloqot qilish hamda o’zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirish; |
| 2 | Art-texnika va materiallarni tanlash | Talabalarning yoshi, o’quv maqsadlari va mavjud resurslarga qarab tegishli art-texnika va materiallarni tanlash | rasm chizish, modellashtirish, kollaj, aplikatsiya, teatrlashtirilgan o’yin, musiqa, raqs va boshqalar; |
| 3 | Topshiriq bilan | Ishtirokchilarni topshiriq bilan tanishtirish, | "Bugun biz his-tuyg’ularimiz san’at orqali |

| | | | |
|---|------------------------------|--|---|
| | tanishtirish va tushuntirish | ta'lim jarayoni qoidalari va maqsadlarini tushuntirish, mavzu yoki vazifani shakllantirish | ifodalash uchun o'zimiz va do'stlarimiz portretlarini qog'ozga tushuramiz." |
| 4 | Tadbirda tayyorgarlik | Jarayonni rejalashtirish, kerakli materiallar va vositalarni tayyorlash, ishonch va ilhom muhitini yaratish; | Jarayon vositalarini yasash; |
| 5 | Ijodiy jarayon | Ishtirokchilar topshiriq ustida ishlaydi, materiallar bilan tajriba o'tkazadi, o'z fikr, his-tuyg'u va g'oyalarini badiiy faoliyat orqali ifodalaydi; | O'qituvchi ishtirokchilarni kuzatadi, qo'llab-quvvatlaydi, ularning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda yordam beradi; |
| 6 | Munozara-mulohaza | Natijalarini muhokama qilish, fikr almashish, ijodiy jarayon va olingan natijalarni tahlil qilish; | "Ijodingiz orqali qanday g'oyalar va his-tuyg'ularni ifodalamoqchi edingiz?" |
| 7 | Baholash va xulosalar | Tugallangan ishni baholash, darsni yakunlash, yutuqlarni aniqlash va erishish mumkin bo'lgan imkoniyatlarni muhokama qilish. | Ishning nafaqat tashqi sifatleri, balki ishtirokchilarning ijodiy faoliyati, o'zini-o'zi rivojlantirish jarayonlarini ham hisobga olish muhim |
| 8 | Yakuniy bosqich | Yakuniy bosqichni yakunlash va tashkil etish, masalan, asarlar ko'rgazmasi, ishtirokchilar o'zlarining ijodiy yutuqlarini namoyish etishlari mumkin bo'lgan spektakl shakli. | |

Mazkur bosqichlarning har biri qulay artpedagogik muhitni yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishtirokchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'z-o'zini anglashda yordam beradi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Artpedagogika faninig bo'lg'usi pedagog kasbiy faoliyatini yo'lga qo'yishidagi tutgan o'rni beqiyosdir. O'zbekiston ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish mutlaqo yangi yondashuvdir.

Artpedagogika g'oyalarini rivojlantirishda san'atning murakkab komponentlaridan jismoniy-ruhiy-ma'naviy tabiati kabi shaxsga har tomonlama ta'sir qilishning obyektiv imkoniyati, istiqbollari va dolzarbligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi tahlillarimiz va ularning muhokamalari natijasida quyidagi xulosalarga to'xtalamiz.

1. Bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiykompetentligini zamonaviy bilimlar bilan boyitadigan, ijodiy faoliyatga yo'naltiradigan, ijodiy qobiliyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladigan me'yoriy hujjatlar va artpedagogik tarbiya tizimini takomillashtirish lozim.

2. Artpedagogika fanini oliy pedagogik ta'limning pedagogika yo'nalishlari uchun mustaqil fan sifatida joriy etish zarur.

3. Ommaviy axborot vositalaridan badiiy-ijodiy yondashuv ong, badiiy-ijodiy kompetentlik va tarbiya masalalari keng o'rin olishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

2. Педагог кадрлар тайёрлаш тизимининг трансформацияси <https://yuz.uz/news/pedagog-kadrlar-tayyorlash-tizimining-tranformatsiyasi>

3. science-pedagogy.ru_ ArticleText.34247.docx

4. Рождествина А.А. Комментарий к Закону Российской Федерации от 09.10.1992 г. N 3612-I "Основы законодательства Российской Федерации о культуре". - Специально для системы ГАРАНТ, 2012 г. <http://ivo.garant.ru/#/document/57792418>

5. Формирование креативной компетенции педагогов в процессе реализации программ дополнительного образования <https://core.ac.uk/download/46462091.pdf>

6. Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешов ой). - "Институт научной и педагогической информации РАО, "ЮРКОМПАНИ", 2012 г. <http://ivo.garant.ru/#/document/58084938>

7. Формирование образовательных компетенций студентов вуза культуры и искусств - скачать бесплатно автореферат и диссертацию по педагогике для написания научной работы или статьи на тему 'Общая педагогика, история педагогики и образования' по специальности... <http://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-01/dissertaciya-formirovanie-obrazovatelnyh-kompetentsiy-studentov-vuza-kultury-iiskusstv>

PEDAGOGIKA

8. Н.Ю.Сергеева Содержание понятия «Артпедагогика» 2008.
9. Котова Мария Викторовна, & Хорошилова Алёна Ивановна (2019). Формирование эстетических представлений об окружающем мире у младших школьников на уроках литературного чтения. E-Scio, (5 (32)), 741-747.
10. Е.В.Таранова., Методология артпедагогика в контексте современных междисциплинарных исследований образования.,Научный вестник. –М, 2017 – 47 с.(3. E.V. Taranova., Methodology of art pedagogy in the context of modern interdisciplinary research in education., Scientific Bulletin. -M, 2017 - 47 p.)
11. Менделевич Д.М., Малышева С.Ю. Слово о профессоре Григорие Яковлевиче Троцине // Неврологический вестник. - 2003. - Т. 35, вып.1-2. -с.70-75.
12. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent: "Fan", 2008. –B. 100.